

KALANCHOE CRENATA HAW O'SIMLIGI ASOSIDA SHIRA OLISH TEXNOLOGIYASI

Kamolova X.A., Nazarova Z.A.

Toshkent farmasevtika institut, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

Email: kamolovahulkar3@gmail.com

tel: +998972299911

Kirish. Bugungi kunda dorivor o'simlik xomashyolariga ehtiyoj ortib bormoqda va hozirgi vaqtida ular dori preparatlarining 1/3 qismini tashkil etadi. Samarali yuqori texnologiyalar kashf etilishi munosabati bilan ishlatalilib kelayotgan ma'lum bo'lgan o'simliklardan olingan yangi dori vositalari soni oshib bormoqda, chunki dorivor o'simliklar kam toksik xususiyatga ega va uzoq, davomli ishlataliganda nojo'ya ta'siri ham kam.

Tadqiqotning maqsadi. Dorivor o'simlik xom ashysidan shira ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektlari sifatida kungarali kalanhoy o'simligi barglari va novdalari olindi. Kungarali kalanhoy semizakdoshlar (Crassulaceae) oilasiga kiradi. Kalanhoy shirasidan stomatologiya, akusher-ginekologiya, otorinolaringologiya va jarrohlik amaliyotida juda keng qo'llaniladi. U mahalliy yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega, yaralarni nekrotik to'qimalardan tozalashda, kuygan joylar, jarohatlar hamda oqma yaralarni davolashda biostimulyator sifatida qo'llaniladi. Kalanhoy shirasi tarkibida flavonoidlar, antioksidantlar, yog'lar, organik kislotalar, tuzlar, ko'p miqdorda polisaxaridlar, oshlovchi moddalar, karotin, P va C vitaminlari, mikroelementlar, fermentlar va boshqa fitokimyoviy birikmalar bor.

Material va metodlar. Kungarali kalanhoy o'simligi bargi va novdasidan shira ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqishda konservant sifatida 90% li etil spiriti tanlab olingan. Shiraning biosamaradorligi yuqori darajada namoyon bo'lishi uchun uni xom ashysidan to'g'ri ajratib olish lozim. Buning uchun o'simlik xom ashysi bo'lgan yashil barglarini uzilgandan so'ng 4-5 sutka davomida 2-8 °C haroratda ushlab turish lozim, so'ng maydalagich yoki pichoq yordamida xom ashyo maydalab bo'tqa holiga keltiriladi. Hosil bo'lgan massadan sharbatni doka yordamida siqib olinadi va ikki kun davomida 10 °C haroratda tindirib qo'yiladi. Tinidirilgan massa yana bir marta dokada suziladi. Mayda zarrachalardan tozlash uchun zaruriyat bo'lsa sentrifugalanadi. Konservant sifatida etil spiritidan (20% gacha) foydalaniladi. Ajratib olingan kalanhoy sharbati steril shisha idishlarga quyib, tiqin yordamida og'zi mahkam berkitiladi.

Kalanhoy shirasi sarg'ish, xushbo'y hidli, chayqatganda osonlik bilan yo'qoladigan opaliessensiyalanuvchi mayda zarrachalardan iborat suyuqlik.

Natijalar. Kungarali kalanhoy o'simligidan shira olish usuli ishlab chiqildi.

Xulosa. Dorivor o'simlik xom ashylaridan shira ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqotlar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. X. X. Xolmatov, O'. A. Ahmedov, Farmakognoziya, Toshkent, Ibn Sino, 2007
2. <https://floristics.info/ru/stati/5420-pyat-lekarstv-iz-kalankhoe.html>